

## IQTISODIY MUSTAQILLIK – YANGILANAYOTGAN O‘ZBEKISTON IJTIMOY-IQTISODIY SALOHIYATINING MODDIY ASOSI

**Karimova Rano Malikovna**

*NDPI, katta o‘qituvchisi*

Iqtisodiy mustaqillik haqida fikr yuritishdan oldin iqtisodiyotning o‘zi nima ekanligini bilib olish muhimdir. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da: “Iqtisod arabcha - xo‘jalik; tejab-tergash; ekonomika degan so‘zlaridan olingan bo‘lib:

- 1) sarf-xarajatda tejamkorlik, tejab (asrab) qolish;
- 2) yeyish-ichish; yeyish-ichish bilan bog‘liq holat;
- 3) aynan iqtisodiyot, - degan ma‘nolarni anglatadi.

“Iqtisodiyot - bu ijtimoiy tuzumning bazisi; xalq xo‘jaligi ishlab chiqarish kuchlarining holatiga muvofiq keluvchi ishlab chiqarish munosabatlari; xo‘jalik tarmoqlarining moddiy va moliyaviy tomonlarini o‘rganadigan fan” ,- degan ma‘nolarni anglatishi qayd etilgan. G‘arbiy Yevropa davlatlarida esa iqtisodiyotni – ekonomika deb atashadi.

“Ekonomika” atamasi qadimgi yunoncha “oikonomike” so‘zidan olingan bo‘lib, u “uy-ro‘zg‘or xo‘jaligini boshqarish san‘ati” – degan ma‘noni anglatgan. Soddaroq qilib aytganda, iqtisodiyot (ekonomika) – jamiyatning ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste‘mol qilish tizimida rivojlanayotgan munosabatlar tizimidan iborat bo‘lgan iqtisodiy faoliyatidir.

Ilmiy faoliyatda “ekonomika” so‘zi milloddan avvalgi IV asrda paydo bo‘lgan bo‘lib, uni mashhur yunon olimi Ksenofont “tabiiy fan” deb atagan bo‘lsa, Aristotel iqtisodiyotni xrematistikaga - foyda olish bilan bog‘liq bo‘lgan inson faoliyatining bir qismiga qarama-qarshi qo‘ygan. Zamonaviy falsafada iqtisodiyotga qiymat tushunchasi nuqtai nazaridan qaraladigan ijtimoiy munosabatlar tizimi sifatida qaraladi. Iqtisodiyotning asosiy vazifasi odamlar hayoti uchun zarur bo‘lgan va ularsiz jamiyat rivojlana olmaydigan moddiy boyliklarni doimiy ravishda yaratishdir. Iqtisodiyot cheklangan resurslar dunyosida inson ehtiyojlarini qondirishga yordam beradi. Shunday qilib, jamiyat iqtisodiyoti har bir inson va umuman jamiyat hayotiy faoliyatini ta‘minlaydigan murakkab va hamma narsani o‘z ichiga olgan organizmdir.

Iqtisodiyot bir qator quyidagi tarmoqlarga bo‘linadi:

Iqtisodiyotning asosiy birlamchi tarmog‘iga qishloq xo‘jaligi, baliq ovlash, o‘rmonchilik, ovchilik va konchilik kiradi.

- iqtisodiyotning ikkilamchi tarmog‘iga - ishlab chiqarish va qurilish.

-iqtisodiyotning uchinchi tarmog‘iga - xizmat ko‘rsatish sohasi. Ko‘pincha iqtisodiyotning uchinchi darajali tarmog‘idan ajralib turadi.

- iqtisodiyotning to‘rtlamchi tarmog‘i - axborot texnologiyalari, ta‘lim, ilmiy tadqiqotlar, global marketing, bank va moliyaviy xizmatlar va shular kabi ishlab chiqarish bilan emas, balki, uni rejalashtirish va tashkil qilish bilan bog‘liq bo‘lgan boshqa xizmatlar (bilimlar iqtisodiyoti).

Iqtisodiyot mulkchilik shakllariga qarab: davlat va xususiy sektor ajralib turadi.

Iqtisodiy faoliyatning o'ziga xos turlariga qarab, iqtisodiyotning real tarmog'i, noishlab chiqarish va moliyaviy o'rtasida farqlanadi.

Iqtisodiyotning quyidagi asosiy shakllari bir birlaridan o'zining haqiqiy voqelikda mavjudligi bilan ajralib turadi.

Bular jumlasiga quyidagilar kiradi:

- bozor iqtisodiyoti;
- ma'muriy-buyruqbozlikka asoslangan iqtisodiyot;
- an'anaviy iqtisodiyot;
- aralash iqtisodiyot va shu kabilar.

Bugungi kundagi O'zbekiston iqtisodiyoti bozor iqtisodiyotiga o'tishga harakat qilinayotgan aralash iqtisodiyot shakliga kiradi.

Iqtisodiy Mustaqillik – bu eng avvalo, xalq va mamlakatning o'zlari harakat qilib, birovlariga muhtoj bo'lmasdan iqtisodiy hayotini tashkillashtirishi demakdir. Bunday so'z iqtisodiy Mustaqillikka ega bo'lgan xalq dunyoda hech kim bilan savdo qilmasligini anglatmaydi, yo'q. Bunda o'zgaralar bilan savdo-sotiq qilish mamlakat zaiflikning sababi emas, albatta. Biror narsani sotib olish, biron bir narsani sotish, bitim tuzish, savdo-sotiq bo'yicha muzokaralar, ularning barchasi zaiflikni keltirib chiqarmaydi. Biroq, shunday bo'lishi kerakki,

Birinchi jihatidan, odamlar birinchi navbatda o'zlarining asosiy ehtiyojlarini o'zlari qondirishlari mumkin bo'lsin.

Ikkinchi jihatidan, dunyoning iqtisodiy taqsimotlari tenglamalarida va umuman dunyoning moddiy ne'matlari taqsimoti tenglamalarida o'zining salmoqli yukiga ega bo'lishini ta'minlashi kerak demakdir. Bu degan so'z, boshqalar uni chetga surib qo'ya ololmasliklarining, uni shunchaki qamal qila olmasliklarining, xohlagan narsalarini qilishlariga qarshi turishi demakdir. Chunki, bugungi kunda iqtisodiy jihatdan ilg'or, qudratga ega bo'lgan ba'zi-bir davlatlar ochiq yoki pinhona tarzda boshqa davlatlarni o'z qo'llarida ushlab turishga harakat qilayotganliklari hech kimga sir emas.

Mamlakatimizning mustaqil iqtisodiyoti - bu mamlakatimizga zarur bo'lgan barcha narsalarning mamlakat ichida ta'minlanganligini bildiradi. Shu sababli mamlakatning barcha zavod va fabrikalari ishlashi zarur bo'ladi. Uni ishlatish esa mamlakat fuqarolarining insonparvarlikka yo'g'rilgan milliy vijdoniy burchi hisoblanadi. Ushbu jarayonda qatnashayotgan har bir mehnat qiladigan inson, nafaqat zavod va fabrikalarda bevosita ishlayotgan ishchilardan iborat bo'lib qolmasdan balki, mamlakatda biron-bir foydali ish bilan shug'ullanadigan yozuvchi, rassom, o'qituvchi, tashabbuskor, tadqiqotchilar kabilarni ham o'z ichiga qamrab olgandir. Chunki, ular ham mamlakatning iqtisodiy mustaqilligini ta'minlash, mustahkamlash va rivojlantirishga kamarbastadirlar.

Iqtisodiy Mustaqillik mamlakat uchun hayotiy zarurat hisoblanadi. Agar mamlakat iqtisodiyotining iplari chet elliklarga biriktirilgan bo'lsa, demak, bu butun vujudning hayotiy arteriyasi va qizilo'ngachi boshqa joyga bog'langanligini anglatadigan usuldir; shuning

uchun ham buyurtma noto'g'ri qo'llarda bo'ladi. Bunday ishlarga aslo yo'l qo'yib bo'lmaydi. Bu jarayonda mamlakat o'zaro aloqalarni va iqtisodiy qaramlikni yo'q qilish uchun faqat o'z xalqining qudratli irodasiga va yorqin qobiliyatlariga tayanib ish ko'rishi lozim bo'ladi.

Iqtisodiy Mustaqillikka intilayotgan davlatlar oldiga qo'yilayotgan umumiy shartlar quyidagilardan iborat.

1. Iqtisodiy Mustaqillikning birinchi sharti bu mamlakatning siyosiy tizimini xorijiy davlatlar ta'siridan xoli bo'lgan mustaqil hukumat tuzish bilan ifodalanadi. Bu jarayon iqtisodiy Mustaqillikning asosiy oqimida nima o'zgarishi bilan cheklanib qolmaydi. Chunki, iqtisodiy Mustaqillik siyosiy Mustaqillikka qaraganda ancha murakkab va keyinroqdir. Chunki, bunda tashqi kuchlar va xorijiy hukumatlar ta'sirini, ularning iqtisodiy hukmronligini buzish oson emas. Agar mamlakat iqtisodiy Mustaqillikka erishmoqchi bo'lsa, unga samarali inson kuchi, foydali manbalar, ko'plab imkoniyatlar, bilimlar, ixtisoslashuv, xalqaro ilmiy-texnikaviy hamkorlik va boshqa ko'p narsalar kerak bo'ladi.

2. Mustaqil mamlakatlar o'z xohishiga ko'ra va o'z manfaatlaridan kelib chiqib, mavjud manbalar va imkoniyatlardan, kerakli tovar va mahsulotlardan foydalangan holda mamlakat ichida ishlab chiqarishi kerak. Ular tashabbuskorlik va sa'y-harakatlar, mustaqil siyosiy hukumat kuchi orqali, shuningdek, butun xalqni erkinlik va Mustaqillik yo'lida har qanday dushmanlarning fitna va tashviqotlariga qarshi qo'llab-quvvatlovchi ma'naviy-mafkuraviy birdamlik orqali kurashishni yo'lga qo'yishlari kerakligi bilan ajralib turadi.

3. Madaniy investitsiyalarning iqtisodiy Mustaqillikka ta'sirini ham hisobga olish mazkur shartlarning biri hisoblanadi. Mamlakat uchun inson hamma narsani qilishga qodir kuch hisoblanadi. Agar inson kuchi bo'lmasa, unda hech narsa bo'lmaydi. Ma'lumki, bir necha yil oldin inqilob o'tkazgan va iqtisodiy, sanoat, texnik va boshqa sohalarda muvaffaqiyatlarga erishgan ba'zi mamlakatlar, o'z inqilobining boshlarida inson kuchini tarbiyalashga maksimal darajada ahamiyat berib, uning istiqbollini rejalashtirishgan; Masalan, bu davlatlarning ba'zi-birlari ayni vaqtda samarali va tajribali ishchi kuchini eksport qilmoqda. Ushbu davlatlarda bunday insonlar kuchi bilan to'lib ketganligi va endi unga kerak emasligini bildirmaydigan vositasidir. Hozirgi kunda moddiy yoki real byudjet madaniy-ma'naviy ishlarga yo'naltirilgan bo'lsa, shuni yodda tutish kerakki, qisqa vaqt ichida bu byudjet iqtisodiy ishlarga va mamlakat iqtisodiy ishlarining aylanmasiga yordam berolmasligi mumkin, ammo ba'zilari qisqa muddatdan keyingi vaqt bo'lmish uzoq va uzoq muddatli davrda darhol mamlakatning o'ziga daromod bo'lib qaytadi. Agar, bunda, hamma narsani to'g'ri taqsimlasa, bu mamlakat iqtisodiy tejamkorligiga ham foyda keltiradigan jarayondir. Boshqacha qilib aytganda, madaniy ishlarga ko'proq byudjet va imkoniyatlar berilishi, ayniqsa, ta'lim madaniyati - mamlakat bundan aziyat chekmaydi, chunki buning o'zi mamlakat kelajagi uchun imkoniyatlar yaratadi.

Iqtisodiy Mustaqillikka erishishning real shartlariga quyidagilar kiradi.

Birinchidan – mamlakatda har kim, qanday ish tutmasin, o'z ishini yaxshi bajarishi kerakligi muhimdir. Bu jarayonda amalga oshirilayotgan ishlarning to'g'ri va mukammal bo'lishini, har tomonlama mukammal bajarilishini va xato-kamchiliklar yo'qligini

ta'minlashga harakat qilish kerakligini bildiradi. Bu shartlardan biri, uni amalga oshirish natijasida iqtisodiy Mustaqillikka erishish mumkin bo'ladi.

Ikkinchidan – tashabbus va yangilikka ega bo'lish lozim. Bu degan so'z, mamlakat ish sharoitida va iqtisodiy harakatlarida tashabbus mavjud bo'lishi kerak demakdir. Davlat ixtiyoridagi zavodlar va fabrikalar, shuningdek odamlar ixtiyorida bo'lganlar ham o'zlarining birozgina foydalarini turli xildagi tadqiqotlarga, ishchi kuchini yanada oshirishga va sifatini yanada yaxshilashga sarf qilishlarini talab qiladigan jarayondir. Xususan, davlatimiz shakllanayotgan mamlakatlar nima uchun Yevropada yoki xorijning boshqa mintaqalarida boshqalar tadqiqot olib borishlarini va ular ulardan o'rganishini kutishlari kerakdir?! Aksincha, davlatimiz fuqarolari ilmiy-amaliy tadqiqotlar bilan shug'ullanishlari, har tomonlama tashabbus ko'rsatishlari, ishlab chiqarishni oldinga surishlari, texnika va texnologiyalarni moddiy va ma'naviy ishlab chiqarish sohalariga joriy etish, xalqning hayotini har tomonlama yangidan – yangi sifat va miqdor darajasiga ko'tarishlari kerakdir.

Uchinchidan – davlatimizning ilmiy salohiyati yurtimiz iqtisodiyoti bilan har tomonlama birlashishi zarurdir. Yurtimizdagi oliy ta'lim va ilmiy tadqiqot muassasalarida faoliyat olib borayotgan olimlar kelib hukumat uchun ishlashi kerak. Ayni vaqtda, hukumat ham e'tiborini ularda bo'lgan va o'qiyotgan olimlarga qaratishi kerak. Biron – bir narsani aytgan ba'zi-bir yevropalik olimlarning tadqiqotlari va bayonotlari doimo bir xil bo'lib qoladi, deb o'ylamasliklari lozim. Chunki, ular bugun bir narsa deyishadiki, lekin bundan 20 yil o'tib, 10 yillar o'tib, balki, 5 yillar o'tgach, boshqa bir olimlar vakili chiqib, bu gaplarni istisno etadi va boshqa so'zlarni gapiradi. Afsuski, G'arb davlatlari aytayotgan har bir gapni so'zsiz qabul qilish va qo'llarini kavlamog bilan ular aytayotgan va qabul qilgan hamma narsani tinglash kerak?! Har bir mamlakatda iqtisodchilar o'z mamlakati holatiga, o'z e'tiqodiga, o'z mamlakatining xususiyatlariga mos keladigan va ularning iqtisodiyoti masalalariga mos keladigan narsalarni topishi kerak.

Har bir davlatning iqtisodiyotdagi mustaqilligini ta'minlovchi iqtisodiy omillari har xil bo'ladi. Bu o'z navbatida, iqtisodiy omillar ichida, iqtisodiy salohiyatni ko'rsatuvchi tabiiy boyliklari, uni har tomonlama harakatga keltiradigan mexanizmlarning harakati, yangi innovatsion tafakkur sohiblari bo'lgan ilmiy texnologik vositalar bilan qurollangan kuchlar alohida ajralib turadigan jarayondir.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, iqtisodiy Mustaqillik deb, har bir millat va xalqning o'z tabiiy va moddiy boyliklariga to'la huquqiy sohib bo'lib, ishlab chiqarish, iste'mol, taqsimot, ayriboshlash munosabatlarini mustaqil ravishda tashkil etish, yashash uchun zarur bo'lgan moddiy ne'matlarni yaratish faoliyati asosiga qurilgan ijtimoiy-iqtisodiy borlig'iga aytiladi.

Iqtisodiy Mustaqillikning ijtimoiy-huquqiy tabiati - birinchidan, tabiiy resurslarga, yerga, zavod-fabrikalarga egalik qilishda ko'rinsa; ikkinchidan - ishlab chiqarishni tashkil etish, ayriboshlash, taqsimot, iste'molni amalga oshirishning o'ziga xos yo'lini ishlab chiqish va uning qonuniyligini ta'minlashda yaqqol namoyon bo'ladi.

Davlatimiz iqtisodiy mustaqilligining asosiy atributiv belgilarini: davlatning tabiiy va moddiy boyliklarga egaligi; davlatning o'ziga xos bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiyotining mavjuddigi; davlatning byudjet, moliya, soliq va bojxona, bank sohasi tizimlariga egaligini; mamlakatimizning oltin zahirasi va qimmatbaho buyumlaridan iborat xazinasini, o'zining milliy valyutasi - pulining mavjudligini; davlatning mustaqil tarzda boshqa davlatlar bilan tashqi iqtisodiy aloqalar olib borayotganligini tashkil etilishidir.

Iqtisodiyot falsafasining ta'biri bilan aytganimizda: "Iqtisodiy Mustaqillik – bu muayyan bir mamlakatning shu mamlakatda mavjud ishlab chiqarish kuchlari va ishlab chiqarish vositalariga, tabiiy va ma'naviy boyliklarga va shu boyliklar tufayli yaratilgan mahsulotdan tushgan milliy daromadga va uni taqsimlashga yagona egalik qilishi" dir.

Yangi O'zbekistonimizning iqtisodiy mustaqilligini mustahamlash borasida oldimizdagi bir qator muammolarni yechishga to'g'ri keladi. Ushbu muammolar sirasiga: ma'lum bir mahsulot ishlab chiqarilishshining sifatini ko'tarish orqali ushbu mahsulotning raqobotbardoshligini yanada oshirish lozimligi; pul ekvivalenti qadrsizlanishiining oldini olish yo'llari; jamiyatda insonlarni ish bilan ta'minlash orqali kambag'allikni tugatilishini; mamlakatimizning xalqaro bozorlardan o'rin olishi va hokazolar kiradi.